

VOYAGA YETMAGANLARNING NOQONUNIY DINIY OQIMLARGA TUSHIB QOLISHINING HUQUQIY XAVFLARI VA JAMIYAT UCHUN OQIBATLARI

Yorkulova Xumora Fazliddinovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro huquq fakulteti talabasi,

ORCID ID: 0009-0006-5056-4527

e-mail: il2025-10186@uwed.ac.uz

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 26.02.2026

Revised: 27.02.2026

Accepted: 28.02.2026

KALIT SO'ZLAR:

voyaga yetmaganlar, noqonuniy diniy oqim, huquqiy savodxonlik, diniy bag'rikenglik, huquqiy xavf, profilaktik chora, onlayn xavfsizlik, "cyber-monitoring", algoritmik ta'sir.

Ushbu maqolada voyaga yetmaganlarning noqonuniy diniy oqimlarga qo'shilib qolishining huquqiy xavflari va jamiyatga ta'sir etuvchi oqibatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – voyaga yetmaganlarni noqonuniy diniy faoliyatdan himoya qilish masalasini tadqiq etish orqali bu borada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini hamda huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha tegishli taklif, tavsiya va xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot predmetini voyaga yetmaganlarning noqonuniy diniy oqimlarga jalb qilish jarayoni, bu jarayonning ijtimoiy-psixologik va huquqiy jihatlari, shuningdek, normativ huquqiy hujjatlar va xalqaro konvensiyalar tashkil etadi. Tadqiqot metodologiyasida empirik so'rovnomalari, statistik tahlil, normativ-huquqiy va qiyosiy-huquqiy tahlil usullari qo'llaniladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, voyaga yetmaganlar orasida huquqiy savodxonlik yetarli darajada emasligi, onlayn muhitdagi radikal content xavfi, oilaviy hamda ta'lim muhitining profilaktik ta'siri, shuningdek huquqiy mexanizmning samarasizligi

aniqlangan. Mazkur tadqiqotda “Huquqiy savodxonlik va diniy bag‘rikenglik asoslari” fanini joriy etish, yoshlar o‘rtasida noqonuniy diniy kontent tarqatadigan sahifalar va guruhlarini aniqlash uchun maxsus raqamli nazorat (cyber-monitoring) tizimini takomillashtirish, ijobiy diniy-ma’naviy ko‘rsatuv va bloglarni moliyaviy va axborot jihatdan qo‘llab-quvvatlash va “Voyaga yetmaganlarni ijtimoiy tarmoqlarda algoritmik ta’sirdan himoya qilish to‘g‘risida” qonun yaratish takliflari ilgari surilgan. Tadqiqot natijalari ilmiy izlanishlar olib borish, normativ huquqiy hujjatlarni sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish va o‘quv modullarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda amaliy qo‘llanilishi mumkin.

Kirish

So‘nggi yillarda voyaga yetmaganlar orasida noqonuniy diniy oqimlarga jalb qilishning internet orqali tez tarqalishi, ularni psixologik va ijtimoiy jihatdan zaiflashtiradi. Bunday jarayonlar nafaqat individual huquqlar, balki jamiyatning huquqiy xavfsizligiga ham tahdid soladi. Internetdagi ekstremistik content, maqsadli reklama va onlayn guruhlar voyaga yetmaganlarning ruhiy ehtiyojlarini manipulyatsiya qilish vositasiga aylanmoqda. Shu sababli, voyaga yetmaganlarni diniy manipulyatsiyadan himoya qilish va huquqiy madaniyatni shakllantirish dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi. Milliy va xalqaro normativ huquqiy hujjatlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 292-2-moddasi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi” va “Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar to‘g‘risida”gi nizom yoshlarni himoya qilishning huquqiy asoslarini belgilaydi. Shu bilan birga, ruhiy zaiflik, ijtimoiy izoyatsiya va identitet inqirozi yoshlarni radikallashtirishga moyil qiladi, bu esa profilaktik va huquqiy choralarni kuchaytirishni taqozo etadi. Maqolaning maqsadi –voyaga yetmaganlarning noqonuniy diniy oqimlarga jalb qilinishining huquqiy jihatlarini tizimli tahlil qilish va ularni oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlarni aniqlashdir. Shu maqsadga erishish uchun quyidagi masalalar yechiladi: Internet va ijtimoiy tarmoqlarda noqonuniy diniy kontent

tarqalish mexanizmlarini aniqlash; Voyaga yetmaganlarning diniy manipulyatsiyaga beriluvchanligi va psixologik zaifliklarini o'rganish; Milliy va xalqaro huquqiy normativ hujjatlar asosida yoshlarni himoya qilish tizimini tahlil qilish; Huquqiy madaniyat va fuqarolik ongini shakllantirish orqali noqonuniy diniy oqimga qo'shilib qolishni oldini olish strategiyalarini ishlab chiqish; Internet va raqamli muhitdagi xavf-xatarlarni kamaytirish uchun monitoring va profilaktika mexanizmlarini takomillashtirish. Yoshlarning radikallasuvi va diniy ekstremistik oqimlarga jalb qilinishining psixologik va ijtimoiy omillari ko'plab tadqiqotchilarga qiziq mavzu bo'lgan. Rousselet (2015) voyaga yetmaganlarning emotsional zaifligi va identitet inqirozi, Jensen (2018) diniy manipulyatsiya va itoat psixologiyasini tahlil qilgan. Aly (2017) va Horgan (2008) internet orqali radikal kontentning tarqalish mexanizmlarini o'rganib, ekstremistik guruhlar tomonidan qo'llaniladigan targ'ibot texnologiyalarini aniqlagan. Vidino (2010) mahalliy sharoitda ekstremistik tarmoqlarga qo'shilish jarayonlarini tahlil qilgan, Bouzar (2016) esa oilaviy nazorat va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning rolini yoritib bergan. Ko'pchilik tadqiqotlar psixologik va sotsiologik yondashuvga e'tibor qaratgan bo'lsa, milliy va xalqaro huquqiy mexanizmlar voyaga yetmaganlarni himoya qilish va profilaktik choralarini tizimli tahlil qilmagan. Shu sababli, mazkur maqolada huquqiy kontekstga alohida urg'u beriladi, voyaga yetmaganlarni diniy manipulyatsiyadan himoya qilishning normativ va institutsional asoslari, amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi.

Metodlar:

Mazkur tadqiqotning metodologiya qismida quyidagi yondashuvlar qo'llanildi:

1. So'rovnoma (Google Forms): So'rovnomada 23 nafar respondent ishtirok etdi, ular asosan 16-18 yoshdagi voyaga yetmaganlar. So'rovnoma savollari diniy ekstremizm tushunchasi, huquqiy savodxonlik, internet va ijtimoiy tarmoqlardagi xavf, shuningdek profilaktik choralar haqida bo'ldi.

2. Ma'lumotlar tahlili (Google Sheets): To'plangan natijalar statistik tahlil qilinib, diagrammalar orqali vizual tarzda ifodalandi. (Oldingi vazifalarda batafsil ko'rsatilgan). Bu yoshlar orasida huquqiy ong, radikal kontent bilan qanchalik tez duch kelishi va profilaktik choralar samaradorligini ko'rsatishga imkon berdi.

3. Normativ-huquqiy tahlil: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, "Voyaga yetmaganlar to'g'risida"gi Qonun, BMT CRC konvensiyasi va xalqaro qonunchilik (E Buyuk Britaniya – Online Safety Act (2023), Youth Protection Act - Janubiy Koreya (2022), Singapur - "Online Safety Code" (2023) kabi qonunlarini) asosida mavjud normativ

huquqiy mexanizmlar tahlil qilindi. Bu qiyosiy-huquqiy yondashuv tadqiqotning ilmiy va amaliy natijalariga asos yaratadi.

Metodologiyaning xususiyati shundan iboratki, tadqiqot psixologik, sotsiologik va huquqiy tahlilni uyg'unlashtiradi. Shu bilan birga, empirik natijalar normativ hujjatlar bilan solishtirilib, voyaga yetmaganlarni himoya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natijalar:


Empirik tahlil uchun men Googlr Forms da 7 ta savoldan iborat bo'lgan so'rovnoma o'tkazildi. Yuqorida ta'kidlaganimdek 23ta respondent ishtirok etgan. Shulardan eng muhimlarini natijalarini ko'rsatib o'taman:

talaba yoshlar ustunlik qildi.

1. Yoshingiz?

23 ответа

 Копировать диаграмму




So'rovda asosan 16-18 yoshdagi ishtirokchilar ustunlik qilgan, bu esa mavzuning aynan voyaga yetmaganlar bilan bog'liq ekanini tasdiqlaydi. Demak, to'plangan ma'lumotlar o'rganilayotgan muammo –yoshlarning diniy o'qimlarga ta'sirchanligi –uchun relevant va amaliy ahamiyatga ega. Kattalar guruhi kam bo'lgani sababli natija aynan yosh avlod fikrini aks ettiradi.

2. Jinsingiz?

23 ответа

[Копировать диаграмму](#)




So‘rovnomaning mazkur savolida ayollar nisbatan ko‘proq ishtirok etgan. Bu holat diniy targ‘ibotlarda ayollar va qizlarning tarmoqlarda faol ishtirok etishi bilan izohlanadi. Shu bois, ularning axborotga nisbatan himoya mexanizmini kuchaytirish dolzarb masala hisoblanadi. Gender tahlil shuni ko‘rsatadiki, radikal g‘oyalar yoshlar orasida jinsdan qat’i nazar, ijtimoiy tarmoqlar orqali.

3. Siz "noqonuniy diniy oqim" tushunchasini bilasizmi?

23 ответа

[Копировать диаграмму](#)




Ko‘pchilik respondentlar bu tushunchani bilishini bildirgan bo‘lsa-da, chorak qismi (26,1%) hali ham aniq tasavvurga ega emas. Bu esa huquqiy va diniy savodxonlikni oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Yoshlar “noqonuniy oqim”ni diniy faoliyat bilan aralashtirib yuborishi xavfi mavjud, bu esa ularni noto‘g‘ri yo‘lga boshlashi mumkin.

4. Sizningcha, voyaga yetmaganlar bunday oqimlarga ko'proq qaysi sabab bilan tushib qolishadi?

[Копировать диаграмму](#)

23 ответа




Ko'pchilik fikricha, asosiy xavf manbai –internet va ijtimoiy tarmoqlar. Bu global tendensiyaga mos keladi: radikal guruhlar asosan algoritmik targ'ibot orqali yoshlarni o'ziga jalb qiladi, ayniqsa Instagramda. Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlardagi algoritmik nazorat va filtrlash tizimini kuchaytirish huquqiy zarurat sifatida paydo bo'lmoqda.

Oilaviy va ta'lim omillari esa ikkilamchi, ammo ularni inkor etib bo'lmaydi — sog'lom muhit va ma'rifat ham asosiy himoya vositasidir.

5. Bunday oqimlarga qo'shilish voyaga yetmaganlar uchun huquqiy oqibatlariga olib keladi deb o'ylaysizmi?

[Копировать диаграмму](#)

23 ответа




Ishtirokchilarning mutlaq ko'pchiligi huquqiy oqibatlar mavjudligoni biladi, bu esa yoshlar

orasida huquqiy ong shakllanayotganidan dalolat. Biroq, 17,4% bilmaydi, demak, qonuniy javobgarlik haqida profilaktik tushuntirish ishlari yetarli emas. Shuning uchun bu yoʻnalishda huquqiy targʻibotni maktab va kollej darajasida kuchaytirish lozim.

6. Siz yoki siz bilgan biror kishi bunday guruhlar bilan aloqa qilgani eshitganmisiz?

[Копировать диаграмму](#)

23 ответа




60,9% respondent hech qanday holatga duch kelmagan boʻlsa-da, har beshinchi ishtirokchi (21,7%) atrofida shunday holat kuzatilgan. Bu raqam xavfning real mavjudligini koʻrsatadi. Demak, radikal guruhlar ijtimoiy tarmoqlarda faol va yoshlar bilan bilvosita aloqa oʻrnatmoqda. Shu nuqtada “algoritmik xavf tahlili”ni qonun darajasida joriy etish dolzarbdir.

7. Voyaga yetmaganlarni bunday oqimlardan himoya qilishda kim eng katta rol oʻynaydi, deb hisoblaysiz?

[Копировать диаграмму](#)

22 ответа




Javoblar shuni koʻrsatadiki, respondentlar asosiy masʼuliyatni oilaga yuklaydi. Biroq davlat

idoralari va OAVning roli ham muhim, chunki diniy ekstremizmga qarshi kurash faqat oilaviy darajada emas, tizimli darajada olib borilishi zarur. Shu sababli qonunchilikda oila, ta'lim va media o'rtasidagi hamkorlik mexanizmini aniq belgilash kerak.

8. Noqonuniy diniy guruhlarining oldini olish uchun eng samarali chora sizningcha qaysi biri?

[Копировать диаграмму](#)

23 ответа



Ishtirokchilar ta'lim va ma'rifatni eng samarali chora deb hisoblagan. Bu natija xalqaro tajriba bilan hamohang: Yevropa va Osiyo davlatlari ham diniy radikalizmga qarshi kurashda profilaktika va ongni oshirishni ustuvor yo'l deb biladi. Shu bilan birga, 30% nazoratni kuchaytirish tarafdori –bu esa axborot makonidagi tartibga solish mexanizmlariga ijtimoiy talab borligini ko'rsatadi.

9. Sizning fikringizcha, bunday oqimlarga tushib qolgan voyaga yetmaganlarga qanday yordam berish kerak?

[Копировать диаграмму](#)

20 ответов



Bu savolda respondentlarning mustaqil fikr bildirish darajasi yuqori -ya'ni yoshlar

profilaktik va rehabilitatsion yondashuvni to'g'ri tushunishmoqda. Ularning takliflari amaldagi qonunchilikni takomillashtirish uchun ijtimoiy asos bo'la oladi. Xususan, psixologik yordam va diniy-ma'rifiy qo'llab-quvvatlash tizimini qonuniy asosda mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Empirik natijalar orasida quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkinki, empirik natijalar yoshlar orasida diniy ekstremizmga nisbatan sezgirlik mavjudligini, ammo huquqiy savodxonlik va onlayn xavfsizlik bo'yicha yetarlicha choralar ko'rilmayotganligini ko'rsatadi. Shuning uchun, profilaktik va rehabilitatsion choralarni kuchaytirish dolzarb.

Tahlil:

Mazkur tadqiqotning asosiy afzalligi shundaki, u ilmiy empirik natijalar va huquqiy normalarni uyg'unlashtiradi. Bu uyg'unlik yoshlarning noqonuniy diniy oqimlarga tushib qolish xavfini aniqlash, mavjud muammolarni baholash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Empirik natijalar ilmiy va huquqiy tomondan quyidagilarni yoritib beroladi: Internet va ijtimoiy tarmoqlar xavfi: Yoshlar asosiy xavfni internet va ijtimoiy tarmoqlardan olmoqda. So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatadiki, respondentlarning 60,9% hech qachon radikal g'oyalar bilan yuzlashmagan bo'lsa-da, 21,7% atrofida bunday holat mavjud. Bu yoshlar orasida noto'g'ri axborot va manipulyativ kontentning mavjudligini tasdiqlaydi. Shu nuqtada milliy qonunchilik, xususan, "Voyaga yetmaganlar to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-263) va "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun, raqamli muhitdagi xavflarni to'liq tartibga solmaydi. Bu esa empirik kuzatuv va huquqiy tahlilni uyg'unlashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Ta'lim va ma'rifatning roli: So'rovnoma natijalari yoshlarning diniy savodxonligi va huquqiy ongini oshirish ta'lim va ma'rifat orqali samarali bo'lishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, huquqiy tahlil shuni aniqlaydi-ki, amaldagi qonunlarda profilaktik choralar belgilangan bo'lsa-da, ularning amalga oshirilish mexanizmlari yetarli emas. Shu tarzda, ilmiy tahlil (yoshlarning xatti-harakatlari va qarashlari) hamda huquqiy tahlil (normativ huquqiy hujjatlar) bir-birini to'ldiradi va yangi qonuniy mexanizmlar ishlab chiqish imkonini beradi. Xalqaro standartlar bilan uyg'unlik: Empirik natijalar yoshlarning onlayn muhitdagi xavfsizligi va ma'naviy barqarorligini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtada BMT CRC General Comment No.25 bolalarning raqamli muhitdagi huquqlarini himoya qilish bo'yicha aniq talablarni belgilaydi. Shuningdek, EU Digital Services Act (2022) va UK Online Safety Act (2023) kabi qonunchilik namunalarni milliy kontekstga moslashtirish imkoniyatini beradi. Shu bilan ilmiy natijalar va huquqiy talablar

uyg'unlashadi, yoshlarni himoya qilishda milliy qonunchilikni takomillashtirishga asos yaratadi. Algoritmik xavf tahlili: So'rovnomalar natijalari va empirik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda algoritmik tavsiyalar orqali noto'g'ri kontentga duch kelmoqda, xususan Instagram platformasida. Huquqiy tahlil shuni aniqlaydiki, amaldagi qonunchilik algoritmik xavflarni cheklash va platforma javobgarligini ta'minlash nuqtai nazaridan yetarli emas.

Taklif va Xulosa:

Tadqiqot xulosasi shuni ko'rsatdiki, huquqiy mexanizmlarning samaradorligi yoshlarning ma'naviy immuniteti va huquqiy savodxonligini oshirish bilan bevosita bog'liq. Shu sababli, diniy ekstremizmga qarshi kurashda psixologik, ijtimoiy va huquqiy himoya choralari birlashtirilgan tizimda rivojlantirish zarur. Maqola o'rganilgan maqolalar va olingan empirik tahlillar asosida quyidagi takliflarni ilgari suradi. Birinchi navbatda, maktab va oliy ta'lim muassasalarida "Huquqiy savodxonlik va diniy bag'rikenglik asoslari" fani joriy etilishi tavsiya etiladi. Bu fan voyaga yetmaganlarni noqonuniy diniy oqimlarga qarshi huquqiy bilimlar bilan ta'minlaydi, ijtimoiy va ma'naviy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi hamda diniy bag'rikenglikni targ'ib qiladi. Ikkinchidan, noqulay diniy kontent tarqatadigansahifalar va guruhlarni aniqlash uchun maxsus raqamli nazorat tizimi (cyber-monitoring) takomillashtirilishi lozim. Ushbu tizim algoritmik tavsiyalarni, anonimlikni va onlayn manipulyatsiyani aniqlash orqali yoshlarni radikallashtirishdan himoya qiladi. Shuningdek, yoshlarni ijobiy diniy-ma'naviy ko'rsatmalar va bloglar orqali tarbiyalash uchun moliyaviy va axborot resurslarini jalb qilish zarur. Bunday kontent yoshlar ongida sog'lom diniy qadriyatlarni mustahkamlash va ekstremistik g'oyalardan uzoqlashtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, "Voyaga yetmaganlarni ijtimoiy tarmoqlarda algoritmik ta'sirdan himoya qilish to'g'risida" maxsus qonun ishlab chiqilishi taklif etiladi. Ushbu qonun voyaga yetmaganlarning huquqiy himoyasini mustahkamlash, ijtimoiy tarmoqlarda xavfsiz muhit yaratish va ekstremistik kontentga qarshi profilaktik choralarni kuchaytirishga qaratilgan bo'ladi. Tadqiqot xulosalari, shuningdek, normativ huquqiy hujjatlarni sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish va o'quv modullarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda amaliy qo'llanilishi mumkin. Shu bilan birga, yoshlarni diniy ekstremizm va manipulyatsiyadan himoya qilishda huquqiy, psixologik va ijtimoiy integratsiya mexanizmlari birlashtirilgan tizim orqali rivojlantiriladi. Ushbu tavsiyalar amalga oshirilganda, yoshlarning huquqiy, ma'naviy va psixologik

barqarorligi oshadi, diniy ekstremizmning salbiy ta'siri kamayadi va ularni huquqiy jihatdan himoya qilish tizimi yanada samarali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ivanova
2. Aly, 2017
3. Bouzar, 2016
4. Horgan, Jul., 2008
5. Jensen, 2018
6. O'zbekiston Respublikasi. (1994)
7. Raine
8. Rousselet, 2015
9. Vidino, 2010
10. <https://www.researchgate.net/publication/318330643>
11. <https://www.unicef.org/child-rights-convention>
12. <https://lex.uz/docs/-2595913>
13. <https://www.imda.gov.sg/resources/press-releases-factsheets-and-speeches/press-releases/2023/imdas-online-safety-code-comes-into-effect>
14. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2023/50/contents>
15. https://elaw.klri.re.kr/eng_mobile/viewer.do?hseq=67171&type=sogan&key=11